



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No8
MAXSUS SON



BAKALAVR TALABALARINIG MAQOLALARI TO'PLAMI



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Elektron nashr. 173 sahifa.

2025-yil noyabr

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

MEHMONXONA KORXONALARIDA INNOVATSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	10
Erkaboyeva Jasmina Safarali qizi, Ochilova Hilola Farmonovna	
FAULT TOLERANCE AND SELF-HEALING IN IOT-ENHANCED P2P SYSTEMS	15
Ibrokhimkhuja Rikhsikhujayev, Mohit Bhandwal	
BIZNES BOSHQARUVIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	22
Ikromov Boisxon Bahodir o'g'li, Ozodbek Musayev	
BIOLOGIYA FANINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA VIRTUAL LABARATORIYADAN FOYDALANISHNING SAMARADORLIGI.....	27
Turayeva Sabrina Kamoliddin qizi, Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
YASHIL LOGISTIKA VA TRANSMILLIY KORPORATSIYALAR.....	32
Rafiqov Abror Baxtiyor o'g'li, Narzullayev Elmurod Shuxrat o'g'li	
OMBORXONALARNI BOSHQARISHDA RFID TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNI AFZALLIKLARI	36
Mirkamolov Mirsardor Mirxamdami o'g'li, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
STARTAPLAR VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY O'SISH VA RIVOJLANISH JARAYONLARIDAGI ROLI	41
Abdumajidova Muxlisa Alisher qizi, Umarova Mukaddas Abbasovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MILLIY SUG'URTA TIZIMIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI XORIJ TAJRIBASI ASOSIDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI	46
Sobirova Ozoda Rustamovna, Safarov Javohir Ismoilovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA MILLIY TO'LOV TIZIMLARINING ELEKTRON TIJORATDAGI AHAMIYATI.....	50
Teshayev Sayimbek Anvarovich, Tashmuxeamedova Yayra Atxamovna	
CHANGES IN PULSE RATE IN BLOOD VESSELS DURING PHYSICAL EXERCISE	56
Pirnazarov Elchin Anvar o'g'li, Yoldasheva Roila Jumaevna	
JAHON IQTISODIYOTIDA GLOBAL XAVFSIZLIK VA IQTISODIY BARQARORLIK	61
Qayumov Sobit Obid o'g'li, Xasanov Nodir Erkinovich	
LABOR RESOURCES – THE MAIN FACTOR OF NATIONAL DEVELOPMENT.....	68
Qurbanov Tolmasjon Namoz ugli, Mustafayev Golib Sultonmurodovich	
ISTE'MOLCHI TANLOVI VA NAFLILIK NAZARIYASINI ILMIY ASOSLARI.....	75
Q.Abdulkarimov, M.Keldibekova, F.Umarov	
KORXONALARDA RAQAMLI MARKETINGDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH	80
Tumaris Nietullaeva, Alimxodjayeva Nargiza Elshodovna	
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING INSON VA JAMIYAT HAYOTIDAGI TA'SIRI HAMDA AXBOROT XURUJLARI	87
Kodirov Ozodbek, F.Umarov	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIGA KIRITILAYOTGAN INVESTITSIYALAR TAHLILI VA TARMOQNING MAMLAQAT EKSPORTIDAGI O'RNI.....	93
G'ulomiddin Bobobek Sardorjon o'g'li, G'ulamov Ilhom Akramovich	
BIZNESNI BOSHQARISHDA ERP TIZIMIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	98
Abduhamidova Shodiyaxon Abdushukur qizi, Yuldashev Abduhakim Abdulkarimovich	
O'ZBEKISTON VA AFG'ONISTON HAMKORLIK MUNOSABATLARINING YANGI BOSQICHI	103
Fayzullayev Aminjon, F.Umarov	
O'ZBEKISTONDA HUDUDLAR IQTISODIY RIVOJLANISHIDAGI TAFOVUTLAR	110
Najmiddinova Malikabonu Asrorovna, F.Umarov	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'INING RIVOJLANISH YO'NALISHLARI XUSUSIDA	117
Mahmudov Orifbek Abdumomin o'g'li, Azmiova Feruza Payziyevna	



O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING TARKIBIY RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIKKA TA'SIRI	122
Xayrullayev Javohir Sheraliyevich, Maqsudov Bunyodjon Abdusamat o'g'li	
MINTAQALARNI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI TARTIBGA SOLISH VA XALQARO TAJRIBA.....	128
Xudoyberdiyev Feruzbek, F.Umarov	
MINTAQALAR IQTISODIYOTINING RIVOJLANISH HOLATINI BAHOLASH: TAHLIL VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	135
Yarashev Mirkomil, F.Umarov	
OROL DENGIZI INQIROZI OQIBATIDA YER DEGRADATSIYASI VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH IMKONIYATLARI: QORAQALPOG'ISTON MISOLIDA (NDVI VA NDMI TAHLILI ASOSIDA)	141
Nurmatova Shahzoda, Oralbaev Bakhitjan Orintaevich, Ruziyeva Iroda Davutovna, Turotova Nigora Xolmurod qizi	
MINTAQADA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI	147
Abubakirova Xonzoda, F.U.Umarov	
ИНФОРМАЦИОННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ И МОЛОДЁЖЬ: ПРОБЛЕМЫ ДУХОВНОГО ИММУНИТЕТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ	154
Абдуллаев Бехзод Баходир угли, Байбобоева Фируза Набижонова	
SUN'IY INTELLEKT NAZARIYASI VA AMALIYOTI: TAJRIBALAR, MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR	158
Hamroyeva Dilnura G'ayrat qizi, To'qmirzayev Kamol Mo'min o'g'li	
QISHLOQ HUDUDLARIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA XALQARO TASHKILOTLARNING (FAO, UNDP, IFAD) LOYIHALARI TAJRIBASI	162
Z.B.Negmatullayeva, O.Q.Xudayberdiyeva	
O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISH STRATEGIYASIDAGI O'RNI.....	168
Bo'riyev Behruzbek Bahodir o'g'li, Elov Dilshod Abdujabborovich	



O'ZBEKISTON RAQAMLI IQTISODIYOTI VA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARINING IQTISODIY O'SISH STRATEGIYASIDAGI O'RNI

Bo'riyev Behruzбек Bahodir o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

Elov Dilshod Abdujabborovich

O'zbekiston Milliy universiteti

Iqtisodiyot fakulteti

Iqtisodiyot nazariyasi kafedrasida dotsenti, DSc.

Annotatsiya: Maqolada O'zbekiston iqtisodiy tizimida raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining o'sish strategiyasidagi o'rni ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning iqtisodiy samaradorlik, mehnat unumdorligi hamda davlat boshqaruvi shaffofligini oshirishdagi ta'siri o'rganilgan. Natijalarga asoslanib, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida kadrlar salohiyatini oshirish, sun'iy intellekt infratuzilmasini kengaytirish hamda raqamli xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, iqtisodiy o'sish, raqamli transformatsiya, innovatsiya, raqamli bank, samaradorlik.

Abstract: The article provides a scientific analysis of the role of the digital economy and artificial intelligence technologies in Uzbekistan's economic growth strategy. The study examines the impact of digital technologies and artificial intelligence on economic efficiency, labor productivity, and transparency in public administration. Based on the findings, practical recommendations have been developed to enhance human resource potential, expand AI infrastructure, and ensure digital security in the process of developing the digital economy in Uzbekistan. Moreover, the article reviews international experiences and proposes ways to adapt them to the national context.

Key words: digital economy, artificial intelligence, economic growth, digital transformation, innovation, digital banking, efficiency.

Аннотация: В статье проведён научный анализ роли цифровой экономики и технологий искусственного интеллекта в стратегии экономического роста Узбекистана. В исследовании изучено влияние цифровых технологий и искусственного интеллекта на повышение экономической эффективности, производительности труда и прозрачности государственного управления. На основе полученных результатов разработаны практические рекомендации по повышению кадрового потенциала, расширению инфраструктуры искусственного интеллекта и обеспечению цифровой безопасности в процессе развития цифровой экономики в Узбекистане. Кроме того, в статье рассмотрен международный опыт и предложены пути его адаптации к национальным условиям.

Ключевые слова: цифровая экономика, искусственный интеллект, экономический рост, цифровая трансформация, инновации, цифровой банк, эффективность.

KIRISH

Global iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasi sharoitida mamlakatlarning raqobatbardoshligi tobora ko'proq innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasiga bog'lanmoqda. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (AI), katta ma'lumotlar (big data), raqamli platformalar va avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari iqtisodiy jarayonlarning samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omilga aylanmoqda. Bu texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish va moliya sohalariga, balki davlat boshqaruvi, ta'lim, sog'liqni saqlash va transport tizimlariga ham chuqur ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi yangi iqtisodiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, kiberxavfsizlik, mehnat bozori o'zgarishlari va ma'lumotlar suvereniteti kabi yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda.



O'zbekiston uchun raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va sun'iy intellekti milliy iqtisodiyotga joriy etish masalasi strategik ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda raqamli transformatsiya jarayonlari davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF–6079-son¹ Farmonida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish va zamonaviy axborot infratuzilmasini shakllantirish vazifalari aniq belgilab berilgan [1]. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ–4022-son² Qarori bilan raqamli infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda "Elektron hukumat" tizimini kengaytirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan [2]. Shu doirada "Yagona billing", "my.gov.uz", "Raqamli bank" kabi loyihalar amalga oshirilib, iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi, tezkorligi va samaradorligi sezilarli darajada oshirildi. Bundan tashqari, "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da raqamli iqtisodiyotni chuqurlashtirish va sun'iy intellekt sohasida kadrlar tayyorlash ustuvor vazifa sifatida qayd etilgan [3].

Shu sababli, O'zbekiston iqtisodiy siyosatida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekti qo'llashning strategik ahamiyatini tahlil etish, ularning iqtisodiy o'sish sur'atlariga, samaradorlikka va xalqaro raqobatbardoshlikka ta'sirini o'rganish dolzarb ilmiy va amaliy masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi – O'zbekistonning raqamli transformatsiya jarayonini, sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy o'sish strategiyasidagi o'rnini tahlil qilish hamda ularni rivojlantirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Moliya tizimi va uning boshqa iqtisodiy tizimlar bilan o'zaro aloqadorligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar ko'plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan olib borilgan. Xususan, amerikalik iqtisodchi F. S. Mishkin o'zining mashhur "The Economics of Money, Banking and Financial Markets" asarida moliya tizimini milliy iqtisodiyotning markaziy qon tomiri sifatida talqin etib, uning ishlab chiqarish, investitsiya va bandlik jarayonlariga bevosita ta'sirini ilmiy asosda yoritgan [4]. Mishkinning nazariy qarashlari moliya tizimining samarali faoliyat yuritishi kapital oqimlarini tartibga solish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini rag'batlantirishini asoslaydi. Shu bilan birga, mazkur yondashuvda zamonaviy raqamli iqtisodiyotning o'ziga xos jarayonlari, jumladan fintech yechimlari va sun'iy intellekt texnologiyalarining moliyaviy oqimlar dinamikasiga ta'siri yetarli darajada qamrab olingan emas. Bu holat moliya sektorining raqamli transformatsiyasi sharoitida mavjud nazariy modellarning ayrim jihatlarida dolzarblikni yo'qotayotganini va ularni yangilovchi ilmiy yondashuvlarga ehtiyoj ortib borayotganini ko'rsatadi.

Global miqyosda esa Xalqaro Valyuta Jamg'armasi va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda moliya tizimi bilan real sektor o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni mustahkamlash global iqtisodiy barqarorlik va moliyaviy inklyuzivlik uchun muhim omil ekanligi alohida ta'kidlangan [5]. Shu bilan bir qatorda, mavjud tadqiqotlarda asosan rivojlangan mamlakatlar tajribasi tahlil qilingan bo'lib, rivojlanayotgan davlatlar, jumladan O'zbekiston sharoitiga xos institutsional va infratuzilmaviy farqlar yetarli darajada inobatga olinmagan. Natijada, global miqyosdagi tavsiyalarni milliy iqtisodiy modelga moslashtirish jarayonida bir qator amaliy cheklovlar yuzaga keladi.

Mahalliy miqyosda esa Shukurov T. I. va Malikov M. kabi olimlarning ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ularning tadqiqotlarida O'zbekiston moliya tizimining iqtisodiyotdagi o'rni, ishlab chiqarish, investitsiya va soliq tizimlari bilan o'zaro aloqadorlik mexanizmlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijalarida moliya tizimi barqaror faoliyat yuritgan sharoitda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida kapital aylanish tezlashishi, investitsiya oqimlarining kengayishi hamda ishlab chiqarish samaradorligining oshishi ilmiy asosda isbotlab berilgan [6].

Umuman olganda, ayrim tadqiqotlarda moliya tizimining inson kapitali, bandlik darajasi va ijtimoiy barqarorlikka ta'siri ham o'rganilgan bo'lsa-da, bu yo'nalishdagi tahlillar asosan nazariy xarakterga ega bo'lib, empirik dalillar bilan yetarlicha boyitilmagan. Ushbu kamchilik iqtisodiy jarayonlarning amaliy natijalarga asoslanmagan holda baholanishiga olib kelib, siyosiy qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslarning zaiflashishiga sabab bo'ladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur izlanishlar O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti va sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiy o'sish strategiyasidagi o'rnini o'rganishda tahlil va taqqoslash metodlari asosida olib borildi. Raqamli texnologiyalar

1 <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

2 <https://lex.uz/docs/-4071219>



va sun'iy intellektning iqtisodiy jarayonlarga ta'siri statistik ma'lumotlar, Prezident farmonlari, qarorlar, milliy strategiyalar hamda raqamli loyihalar orqali solishtirish va qiyosiy tahlil yordamida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar xalqaro moliya tizimining tarkibiy tuzilmasini tubdan o'zgartirib yubordi. Globallashuv, iqtisodiy integratsiya va texnologik taraqqiyot natijasida iqtisodiy samaradorlik tobora tezkor va xavfsiz shaklga ega bo'lib bormoqda. Tadqiqotlardan kelib chiqqan holda sun'iy intellekt tushunchasiga ta'rif beradigan bo'lsam, bu inson tafakkuriga xos bo'lgan o'rganish, tahlil qilish, qaror qabul qilish va bashorat qilish kabi funksiyalarni kompyuter tizimlari orqali amalga oshirish imkonini beruvchi texnologiyalar majmuasidir.

Zamonaviy iqtisodiy tizimlarda sun'iy intellekt raqamli iqtisodiyotning eng muhim drayverlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xalqaro amaliyotda AI texnologiyalarini iqtisodiy boshqaruvga tatbiq etish mehnat unumdorligini o'rtacha 15–20 foizgacha, ishlab chiqarish samaradorligini esa 25 foizgacha oshirishi aniqlangan (OECD, 2023). Shuningdek, McKinsey Global Institute tahlillariga ko'ra, sun'iy intellektning keng joriy etish 2030-yilga borib global yalpi ichki mahsulot (YalM) hajmini 15,7 trillion AQSh dollariga oshirishi mumkin [7].

"Iqtisodiy samaradorlik esa – mavjud resurslardan eng yuqori natijaga erishish jarayonini ifodalovchi ko'rsatkich bo'lib, u ishlab chiqarish, bandlik, investitsiya va boshqaruv tizimlari sifatini o'lchashda muhim mezon hisoblanadi. O'zbekiston iqtisodiyotida so'nggi yillarda raqamli texnologiyalarni joriy etish natijasida bu ko'rsatkich sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Masalan, 2020–2024-yillar oralig'ida mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YalM) o'rtacha 5,5 foiz o'sdi, bu jarayonda raqamli iqtisodiyotning ulushi 2020-yildagi 2,2 foizdan 2024-yilda 4,8 foizgacha oshgan" [8].

Raqamli texnologiyalar, jumladan "Raqamli bank", "Yagona billing", "E-auksion" va "my.gov.uz" tizimlarining faol joriy etilishi natijasida iqtisodiy jarayonlarning tezligi va shaffofligi ortib, davlat xizmatlarining raqamlashtirilish darajasi 2018-yildagi 35 foizdan 2024-yilda 78 foizgacha yetdi. Bu esa davlat boshqaruvi samaradorligini oshirib, byurokratik to'siqlarni kamaytirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatda 1,2 trillion so'mgacha tejamkorlikni ta'minlagan [9].

Sun'iy intellekt texnologiyalarining iqtisodiyotga bevosita ta'siri ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohaslarida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Masalan, bank-moliya tizimida kredit xavfini baholash, mijozlar segmentatsiyasi va friibgarlikni aniqlashda AI asosidagi algoritmlar joriy etilib, bu orqali operatsion xarajatlar 10–12 foizga kamaytirildi. Sanoat tarmoqlarida esa "aqlli ishlab chiqarish" texnologiyalarini joriy etish natijasida ishlab chiqarish unumdorligi 15 foizga, energiya samaradorligi esa 8 foizga oshgan. Bundan tashqari, O'zbekistonda sun'iy intellekt sohasidagi ilmiy va texnologik salohiyatni oshirish maqsadida 2021-yilda Sun'iy intellektning rivojlantirish strategiyasi tasdiqlanib, 10 dan ortiq AI-laboratoriyalar tashkil etildi. 2024-yil holatiga ko'ra, mamlakatda raqamli iqtisodiyot sohasida faoliyat yuritayotgan startaplar soni 480 tadan oshgan, shundan 40 tasi sun'iy intellektga asoslangan xizmatlar bilan shug'ullanadi [10].

So'nggi yillarda axborot-kommunikatsiya tizimi jahon va milliy iqtisodiyotlarda muhim rol o'ynay boshladi. Raqamli transformatsiya jarayoni har bir iqtisodiy sektorning samaradorligini oshirish, xizmatlar sifatini yaxshilash va yangi ish o'rinlari yaratish imkonini beradi. Shu jumladan, axborot-kommunikatsiya sohasidagi xizmatlar mamlakatning yalpi qo'shilgan qiymatidagi ulushini sezilarli darajada oshirmoqda. Ushbu xizmatlar jumlasiga telekommunikatsiya, internet xizmatlari, raqamli media, IT-konsalting va dasturiy ta'minot ishlab chiqish kiradi. Axborot-kommunikatsiya xizmatlari nafaqat texnologik infratuzilmani rivojlantiradi, balki iqtisodiy integratsiya, elektron savdo, moliyaviy xizmatlar va davlat boshqaruvining raqamlashtirilishini ham rag'batlantiradi. Shu sababli, sohadagi o'sish sur'atlarini tahlil qilish mamlakat iqtisodiy strategiyasini shakllantirish, raqamli iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va investitsion loyihalarni rejalashtirishda muhim ahamiyatga ega (1-jadval).

1-jadval. Yalpi qo'shilgan qiymatda "Axborot-kommunikatsiya" sohasidagi xizmatlar hajmining o'sish dinamikasi (trln so'm)³

	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2024-yil
YAIM	668.1	734.6	995.6	1204.5	1454.6
Sanoatning yalpi qo'shgan qiymat	220.1	267.7	361.1	464.9	535.8
Axborot-kommunikatsiya sohalari	4.4%	5.7%	7.0%	7.4%	8.8%

1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, berilgan davrda sanoatning yalpi qo'shilgan qiymati deyarli 2,5 baravarga oshdi. Ya'ni bu ko'rsatkich 2020-yilda 220,1 trln so'mdan 2024-yilda 535,8 trln so'mgacha ko'tarilgan. Oraliq davrda mazkur ko'rsatkich muntazam o'sish sur'atlariga erishdi. U 2021-yilda 267,7 trln so'm, 2022-yilda 361,1

3 Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi[11]. <https://www.stat.uz>



trln so'm va 2023-yilda 464,9 trln so'mni tashkil qildi. Bu davrda umumiy yalpi ichki mahsulot ham tarkibiy qismlarining o'sishga erishgani sababli muntazam ko'payib bordi. YalM ham 2020-yilda 2016-yilga nisbatan deyarli 2,5 baravarga ko'paydi. Ya'ni ko'rsatkich davr boshida 668,1 mlrd so'mdan davr oxirida 1 454,6 trln so'mgacha ko'tarildi.

"Axborot-kommunikatsiya" iqtisodiy faoliyati bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar ham tahlil qilinayotgan davrda o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Bu davrda xizmatlar hajmi 2020-yilda 97,1 trln so'mdan 2024-yilda 218,9 trln so'mgacha oshib borgan. Jami xizmatlarning o'sish ko'rsatkichi esa tahlil qilinayotgan davrda 8 foizdan kam bo'lmagan o'sishga erishgan. Faqat davr oxirida bu ko'rsatkich 102,3 foizgacha tushgan. Davr boshida, ya'ni 2016-yilda o'sish ko'rsatkichi 114,7 foizni tashkil qilgan.

Umuman olganda, tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda raqamli iqtisodiyot va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi milliy iqtisodiyotda barqaror o'sish, samaradorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'lida asosiy strategik drayverlardan biriga aylanib bormoqda. Shu sababli, O'zbekiston uchun raqamli iqtisodiyotning kelgusi o'sish bosqichida asosiy ustuvor yo'nalishlar sifatida kadrlar tayyorlash, AI tadqiqotlariga investitsiyalarni kengaytirish va ma'lumotlar boshqaruvi kuchaytirish masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti va sun'iy intellekt texnologiyalarini rivojlantirish jarayonida mavjud holat kelgusida sezilarli o'sish nuqtalarini shakllantirish imkonini beradi. Aholining 14,4 foizining IT sohasida malakaga ega ekani mazkur yo'nalishda professional tayyorgarlikni kengaytirish zarurligini ko'rsatadi. Ushbu jarayon "Raqamli bank" va "my.gov.uz" kabi platformalarning uzluksiz ishlashini yanada takomillashtirishga xizmat qiladigan yangi texnik mutaxassislar avlodini shakllantirishga zamin yaratadi. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish bilan raqamli xizmatlarni joriy etish sur'atlari tezlashib, loyihalarning natijadorligi ortib boradi.

Raqamli infratuzilmaning hozirgi rivojlanish bosqichi mamlakatda yangi texnologik imkoniyatlarni keng miqyosda joriy etish uchun katta istiqbol ochadi. Bulutli texnologiyalar, ma'lumotlar markazlari va kiberxavfsizlik tizimlarini kengaytirish orqali kredit riskini baholash, "aqlli transport" kabi AI loyihalarining funktsionalligi sezilarli darajada ortishi kutiladi. Ma'lumotlar bazalarining boyib borishi algoritmning aniqligi va qaror qabul qilish jarayonlarining tezligini oshiradi, bu esa sektorda samaradorlikning yangi sifat bosqichini shakllantiradi.

Moliyaviy resurslar dinamikasining hozirgi holati innovatsion loyihalarni yanada faol qo'llab-quvvatlash imkonini beradi. Masalan, aqlli qishloq xo'jaligi bo'yicha startaplar uchun 2024-yilda ajratilgan 7 ta grant ushbu yo'nalishning shakllanayotgan bozorini belgilab beradi va kelgusida moliyalashtirish hajmlarini oshirish uchun metodik asos yaratadi. Innovatsion ekotizimning kengayishi bilan grantlar, investitsiyalar va venchur moliya oqimlari ko'payib, texnologik tadbirkorlikning faol rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Davlat siyosati va normativ-huquqiy bazaning takomillashtirilishi bo'yicha olib borilayotgan ishlar O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotning barqaror rivoji uchun mustahkam poydevor yaratadi. Zamonaviy standartlarga moslashtirilgan kiberxavfsizlik me'yorlari, ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha talablar va fintech platformalar faoliyatiga oid yangilangan tartibotlar investitsion jozibadorlikni oshirib, texnologik modernizatsiya jarayonlarini jadallashtiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, IT kadrlar tayyorlash, infratuzilmani kengaytirish, moliyalashtirish manbalarini ko'paytirish va normativ bazani rivojlantirish bo'yicha bosqichma-bosqich amalga oshiriladigan chora-tadbirlar O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini yangi sifat darajasiga olib chiqishi prognoz qilinadi. Mazkur yondashuv kelgusida sun'iy intellekt texnologiyalari integratsiyasini tezlashtirib, iqtisodiy o'sish sur'atlarini mustahkamlaydi, samaradorlikni oshiradi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Sohani yanada rivojlantirish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqdik:

Kadrlar tayyorlash va malakasini oshirish — IT-mutaxassislarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarini kengaytirish, xorijiy ekspertlar va startaplar bilan hamkorlik qilish muhimdir. Qisqa muddatli onlayn va masofaviy treninglar, amaliy kurslar orqali kadrlar tayyorlash xizmat sifati va texnik masalalarni tezkor hal etish imkoniyatini oshiradi. Masalan, "Raqamli O'zbekiston" loyihasi doirasida tashkil etilgan onlayn kurslar IT-mutaxassislar tayyorlanishiga hissa qo'shadi va raqamli xizmatlarni joriy etish sur'atlarini oshiradi.

Raqamli infratuzilma va AI-laboratoriyalarni rivojlantirish — bulutli texnologiyalar, ma'lumot markazlari va kiberxavfsizlik tizimlarini kengaytirish talab etiladi. Davlat va xususiy sektor investitsiyalarini oshirish orqali, masalan sun'iy intellekt asosidagi kredit riskini baholash tizimlarining samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Ma'lumotlar bazasi va yagona registrlar yaratish — big data va IoT texnologiyalarini joriy etish, shuningdek xalqaro maxfiylik va ma'lumotlar suvereniteti standartlarini tatbiq etish muhimdir. Bu "aqlli transport" loyihalarida ma'lumotlarni yagona registrga jamlash orqali tizim samaradorligini oshiradi va transport oqimlarini optimallashtirish imkonini beradi.



Startaplar va innovatsion kompaniyalarni qo'llab-quvvatlash — grantlar, soliq imtiyozlari, kredit liniyalari va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali kichik va o'rta biznesni rag'batlantirish muhimdir. Masalan, aqlli qishloq xo'jaligi startaplariga ajratiladigan moliyaviy yordam innovatsion loyihalar kengayishiga xizmat qiladi.

Sektorlar bo'yicha AI va raqamli yechimlarni uyg'un joriy etish — ishlab chiqarish, bank-moliya, transport, qishloq xo'jaligi va sog'liqni saqlash tizimlarida maxsus transformatsiya strategiyalarini ishlab chiqish, pilot loyihalarni kengaytirish va ma'lumot almashish tizimlarini yaratish muhimdir. Bu raqamli xizmatlar samaradorligini oshiradi, resurslardan optimal foydalanish va ish unumdorligini yaxshilash imkonini beradi.

Normativ-huquqiy bazani mustahkamlash: maxsus qonunlar va standartlar ishlab chiqish, regulyatorlar hamda texnologik ekspertlarni jalb qilgan "think tank"larni tashkil etish, xalqaro tajribani o'rganib, lokal sharoitga mos normativlarni joriy etish raqamli iqtisodiyotning xavfsiz va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Agar ushbu yechimlar amalga oshirilsa, O'zbekiston raqamli iqtisodiyoti va sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi bir necha jihatdan sezilarli natija beradi: iqtisodiy o'sish sur'atlari barqarorlashadi, mehnat unumdorligi oshadi, davlat boshqaruvi va moliyaviy xizmatlar shaffoflashadi, raqamli xizmatlar sifati hamda tezligi ortadi. Shu bilan birga, investitsiyalar oqimi ko'payadi, innovatsion loyihalar kengayadi va O'zbekiston global raqamli iqtisodiyot integratsiyasida raqobatbardosh mamlakat sifatida o'z o'rnini mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi "“Raqamli O'zbekiston — 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-6079-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 21-noyabrdagi "Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida raqamli infratuzilmani yanada modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4022-son qarori. <https://lex.uz/docs/-4071219>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022 — 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi PF-60-son, <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
4. Mishkin, F. S., The Economics of Money, Banking and Financial Markets, 12th edition, Pearson, 2021. <https://www.pearson.com/>
5. Organisation for Economic Co-operation and Development (OECD), Financing SMEs and Entrepreneurs 2023: An OECD Scoreboard, Paris, 2023. <https://www.oecd.org/>
6. Shukurov, T. I., Malikov, M., Moliya tizimi va milliy iqtisodiyot: barqaror rivojlanish va investitsiya mexanizmlari, Toshkent, 2022. <https://www.elibrary.uz>
7. McKinsey Global Institute, Notes from the AI Frontier: Modeling the Impact of AI on the World Economy, 2018, updated 2023. <https://www.mckinsey.com/mgi>
8. OECD, Digital Economy Outlook 2023, Paris, 2023; O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi, Yalpi ichki mahsulot va raqamli iqtisodiyot ko'rsatkichlari, Toshkent, 2024. <https://www.oecd.org>
9. O'zbekiston Respublikasi Axborot Texnologiyalari va Kommunikatsiyalar Vazirligi, Raqamli transformatsiya va davlat xizmatlarining samaradorligi bo'yicha hisobot, Toshkent, 2024. <https://www.mincom.uz>
10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Sun'iy intellektni rivojlantirish strategiyasi va AI-laboratoriyalar faoliyati, Toshkent, 2021–2024. <https://www.gov.uz/>
11. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi rasmiy sayti <https://www.stat.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

8-Maxsus son. Bakalavr talabalarining maqolalari to'plami

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
